


**Navoiy viloyatida  
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**  
*2025-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)*

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan  
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Navoiy viloyatida 2025- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 7 330,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o'sgan.

**Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

## II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

|                        | Ming so'm      | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|----------------|----------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>7 330,9</b> | <b>112,5</b>         |
| Navoiy shahri          | 7 880,9        | 113,5                |
| Zarafshon shahri       | 10 549,4       | 108,4                |
| G'ozg'on shahri        | 3 448,8        | 107,1                |
| Karmana tumani         | 5 265,9        | 121,3                |
| Konimex tumani         | 8 173,8        | 116,0                |
| Qiziltepa tumani       | 3 169,7        | 110,7                |
| Navbahor tumani        | 3 562,9        | 114,7                |
| Nurota tumani          | 3 277,2        | 109,2                |
| Tomdi tumani           | 4 169,8        | 111,5                |
| Uchquduq tumani        | 11 086,6       | 110,4                |
| Xatirchi tumani        | 3 409,3        | 113,5                |

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Uchquduq tumani 11 086,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Karmana tumanida 5 265,9 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,3%), Konimex tumanida 8 173,8 ming so'mni (116,0%), Navbahor tumanida 3 562,9 ming so'mni (114,7%), Xatirchi tumanida 3 409,3 ming so'mni (113,5%) va Navoiy shahrida 7 880,9 ming so'm (113,5%)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi G'ozg'on shahrida 3 448,8 ming so'm (107,1%), Zarafshon shahrida 10 549,4 ming so'mni (108,4%), Nurota tumanida 3 277,2 ming so'mni (109,2%), Uchquduq tumanida 11 086,6 ming so'm (110,4%), Qiziltepa tumanida 3 169,7 ming so'mni (110,7%) hamda Tomdi tumanida 4 169,8 ming so'mni (111,5%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025- yilning yanvar–mart oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

| Iqtisodiy faoliyat turi nomi                                | Ming so'm      | O'sish sur'ati, %da |
|-------------------------------------------------------------|----------------|---------------------|
| Sanoat                                                      | 10 583,2       | 112,4               |
| Qurilish                                                    | 7 529,9        | 99,2                |
| Savdo                                                       | 3 883,6        | 120,9               |
| Tashish va saqlash                                          | 5 527,4        | 121,2               |
| Yashash va ovqatlanish                                      | 2 499,1        | 107,8               |
| Axborot va aloqa                                            | 8 654,1        | 115,1               |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit<br>va vositachilik faoliyati | 12 541,8       | 108,0               |
| Ta'lim                                                      | 3 759,9        | 111,3               |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy<br>xizmatlar ko'rsatish       | 3 662,7        | 112,7               |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish                         | 3 148,6        | 104,9               |
| <b>O'rtacha</b>                                             | <b>7 330,9</b> | <b>112,5</b>        |

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari tashish va saqlash sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,2% ni, ish haqi miqdori esa 5 527,4 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, savdo sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 3 883,6 ming so'mni tashkil etib, o'sish 20,9% ga, axborot va aloqa faoliyati sohasida ish haqi miqdori 8 654,1 ming so'mni tashkil etib, 15,1% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha ish haqi 3 662,7 ming so'mni tashkil etib, 12,7% ga, sanoat sohasida esa 10 583,2 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 12,4% ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi qurilish sohasida 7 529,9 ming so'mni tashkil etib, 0,8% ga kamaygan, sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 3 148,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9% ga, yashash va ovqatlanish xizmatlari yo'nalishida 2 499,1 ming so'mni tashkil etib, 7,8% ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida 12 541,8 ming so'mni tashkil etib, 8,0% ga, ta'lim sohasi bo'yicha esa 3 759,9 ming so'mni tashkil etib 11,3% ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.


#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

#### IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.


**Sanoat sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 10 583,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 11 152,7 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 10 768,4 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 9 071,0 ming so'm hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida 5 603,0 ming so'm ekanligi kuzatildi.

##### Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




**Qurilish sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 7 529,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2 741,0 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

##### Qurilish sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




**Savdo sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 3 883,6 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1 859,0 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm**




**Tashish va saqlash sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 5 527,4 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2 957,0 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Tashish va saqlash sohasida o'rtacha ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Axborot va aloqa sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 8 654,1 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 5 716,1 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 12 541,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 6 180,2 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**



**Ta'lim sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 3 759,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1 587,7 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida** so'nggi besh yildagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida o'rtacha ish haqi miqdori 3 662,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1 743,0 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**



## V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Navoiy viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Hisobot oyi uchun** nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

$W_n$  – nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
D.Abdimurodov  
79 223-07-41

**Manzil:**  
Navoiy shahri,  
A.Temur ko'chasi 4-uy